

OPERATIV IJARA HISOBI

Guzal Djumayeva Axtamovna

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Buxgalteriya hisobi

Annotatsiya: *Hozirgi vaqtda zamonaviy iqtisodiy islohotlar sharoitida ijara munosabatlari keng tarqaldi, chunki ba'zi kompaniyalar zarur mulkni sotib olish uchun moliyaviy imkoniyatlarga yega bo'lmisligi mumkin, boshqalari esa o'z mulkidan foydalanmaydi va uni foydalanish uchun ijaraga berishga tayyor. Tadqiqot obyekti asosiy vositalarni ijaraga berishni hisobga olishning mohiyati, maqsad va vazifalari, shuningdek mulkni ijaraga berish bilan bog'liq muammolar va ijaraga olingan obyektlarni hisobga olish va baholash masalalariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *buxgalteriya hisobi, ijara, ijara shartnomasi, ijaraga olingan mulk, baholash, lizing.*

Kirish: *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan jahon andozalari darajasidagi yangi texnika bilan ta'minlashda moliyaviy mablag'lar bilan ishtirok etayotgan moliya institutlari, shu jumladan, xo'jalik subyektlarining ijara (lizing) munosabatlariga faol jalb etilayotganligi ko'zga tashlanmoqda. [3]*

Iqtisodiyotdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalari har doim ham kredit olish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Shu sababli, noan'anaviy moliyaviy vositalar ijarasining bir turi bo'lgan lizing xizmatiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ushbu xizmat turi ham mijozlar, ham tijorat banklari uchun birmuncha ma'qul bo'lganligi sababli, rivojlana boshladi. Bunday operatsiyalarning rivojlanishi tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilayotgan ijara muomalalari hisobini yanada takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda ijara ko'pgina davlatlarning korxonalarining investitsion siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijara operatsiyalari bilan to'yinganlik va keng yoyilganligi mamlakatning iqtisodiyotini rivojlanganligi ko'rsatuvchi o'ziga xos ko'rsatkich hisoblanadi. [1]

Ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy va samarali mashinalar, asbob-uskunalar bilan almashtirish muhim vazifalardan biridir. Dunyoda ushbu masalalarni yechishda zamonaviy va yuqori samarali texnika va texnologiyalarni moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha xarid qilish muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida, ijara munosabatlarining ishonchli buxgalteriya hisobi korxonalar tomonidan ijara obyektlaridan foydalanish natijalarini obyektiv aks ettirish imkoniyatlarini yaratib beradi. [4]

Ijara munosabatlari ishlab chiqarishning muhim omillaridan biridir. Bir tomondan, mehnat va kapital birgalikda ijara subyektlarining qatnashishida byudjetni shakllantiradi.[2] Bundan, o'z navbatida, jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari yechiladi, ikkinchi tomondan, takror ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozorni zaruriy mahsulot bilan ta'minlashga imkon bo'ladi. Ijaraga oluvchi (korxonalar) ikki tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'ladi, ya'ni o'z ixtiyori bilan va mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi hamda uni nafaqat o'zining ishlab chiqarishini takomillashtirish qiziqtiradi, balki ishlab chiqarish faoliyat doirasidan kelayotgan daromad ham uning bosh maqsadini tashkil etadi.

Bunda ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi ham ta'minlanadi. Shu jumladan, ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ijara to'lovlari tashkil etadi. Bunda egalik munosabatlari, foydalanish, realizatsiya va ishlab chiqarish vositalariga (asbob-uskunalar, mulkka) egalik qilishni o'zlashtirilishi ham o'z aksini topadi. Ijaraning iqtisodiy mohiyati, ijara bitimi davrida paydo bo'ladigan mulkiy munosabatlar bilan tavsiflanishi asosida tushuntiriladi. Shartnoma predmeti bo'lgan mulki ijaraga beruvchining o'z mulki hisoblanadi, ijaraga oluvchi shartnoma amal qilish muddati mobaynida unga egalik qilish va undan ma'lum to'lov asosida ijara beruvchidan

foydalanishga oladi. Ijaraga beruvchi mulkka to'liq egalik qilishi uchun sotuvchi (yetkazib beruvchi)dan oldi-sotdi shartnomasi asosida mulkning to'la qiymatini to'lab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni. Toshkent sh., 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>.
2. Кудбиев, Д. К. (2019). Учет арендованных основных средств и взаимоотношений арендодателей и арендаторов. In БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА (pp. 144-150).
3. Кудбиев, Д. (2021). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).
4. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.
5. Кудбиев, Д. (2021). ВОПРОСЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 109-119).
6. Исманов, И. Н., & Савинова, Г. А. (2021). Сопоставление Некоторых Аспектов Национальных Стандартов Бухгалтерского Учета и МСФО. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(11), 14-19.